

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

*Sharipova Go'zal Ramazon qizi*

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning deontologik madaniyatini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. O'qituvchilik kasbining axloqiy-me'yoriy asoslari, pedagogik faoliyatda deontologik yondashuvning ahamiyati hamda uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchi shaxsining kasbiy axloqiy madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning roli muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, deontologik madaniyat, kasbiy axloq, pedagogik faoliyat, axloqiy-me'yoriy yondashuv, ta'lim tizimi.

### KIRISH

Jamiyat taraqqiyotida ta'lim muhim omillardan biri bo'lib, unda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarga axloqiy, madaniy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdir. Shu sababli, o'qituvchi nafaqat o'z mutaxassisligiga oid bilim va ko'nikmalarga, balki yuksak kasbiy axloqiy madaniyatga ham ega bo'lishi lozim. Deontologik madaniyat pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchining o'z kasbiga sadoqati, kasbiy burchini anglash darajasi va axloqiy tamoyillarga rioya qilishida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning deontologik madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va omillar tahlil qilinadi.

Deontologiya – so'zi yunoncha “deontos”-“shart” “burch”, logos-“ta'limot”, “o'rganish” degan ma'noni anglatadi. Deontologiya - etika fanining bir qismi sifatida mutaxassis o'rnining bir sohasiga nisbatan xulq-atvor normalari yoki burch haqidagi ma'noni anglatadi.

Burch va majburiyat (axloqiy burch mutaxassis uchun ishlatiladi) meditsina xodimi, o'qituvchi-pedagog, jamiyat ishlarida davlat boshqaruvida rahbarlar oldida va shu bilan har bir shaxs oldida ham uni burch, vazifasi va avtoritetini xalq oldidagi burchi, mas'uliyatini ifodalaydi.

O'qituvchining axloqiy fazilatlar.

Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar barcha kasb egalari, jumladan o'qituvchi-tarbiyachilar uchun zaruriy, axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga soluvchi qoidalar, davlatning turli qonunlari, me'yorlari va normalari bilan shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlarini o'zlashtirib olishi, o'z tajribasida qo'llashi o'zining dunyoqarashi va mafkurasi hamda axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash, his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy, axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar, o'qituvchining o'z axloqiy fazilatlariga e'tiqodiga aylanadi. O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilatlariga va e'tiqodiga aylanishi lozim.

Pedagogik takt - o'qituvchi axloqining aqliy ko'rinishlaridan biridir. O'qituvchi odobining asosiy sifatleri umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar tushunchalarga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda oydinlashtiradi.

Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Urchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namayon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga yuksak obro' va shon-sharaf keltiradi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda, burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rioya qilish, boshqa kishilarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish har bir fuqaroning burchidir. Burchga sodiqlik har bir fuqaroning odobi va axloqini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati o'qituvchilar hurmatini qadrlab har tomonlama ular mehnatini e'tiborga olib har tomonlama g'amxo'rlik qilmoqda. Bizning nazarimizda zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar bo'lishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar va islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi lozim.
2. O'qituvchi zamonaviy axborat texnologiyalaridan, yuqori darajada xabardor bo'lishi zarur.
3. O'qituvchi o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi lozim.
4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi zarur.
5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali usul va vositalardan foydalana olishi lozim.
6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor, tashkilotchi bo'lishi lozim.
7. O'qituvchi yuksak darajada mahorat egasi bo'lishi lozim.
8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi lozim.

## **XULOSA**

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik madaniyatni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining axloqiy tamoyillariga rioya qilish, kasbiy burchni anglash, o'quvchilar bilan samimiy va odobli munosabatda bo'lish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiradi. Deontologik madaniyatni shakllantirishda pedagogik ta'lim muassasalarining roli katta bo'lib, bunda amaliy mashg'ulotlar, psixologik-pedagogik treninglar va ijtimoiy-madaniy muhitning ahamiyati katta. Natijada, yuqori deontologik madaniyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, barkamol avlod tarbiyasiga ham ijobiy hissa qo'shadilar.

## **Adabiyotlar:**

1. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
2. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. Академические исследования в современной науке, 2(24), 148-152.
3. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 8-15.
4. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIASINI O 'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 16-21.
5. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 51-56.
6. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 57-62.
7. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 1-7.
8. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 14-20.
9. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 8-13.